

“DONOLIK” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA QIYOSIY TAHLILI

Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail address: mtojiboyeva95@gmail.com

Telefon nomer: +998979494140

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek folklorshunosligida maqollarning tutgan roli va inson hayotidagi ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, ingliz tilida “wisdom” va o‘zbek tilida “donolik” konsepti bilan bog‘liq mavjud maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari ko‘rib chiqilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Ingliz tilida donolikni ifodalovchi maqollarning o‘zbekcha ekvivalentlari keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz va o‘zbek maqollari, konsept, lingvokulturologik tahlil, donolik, tarjima, ekvivalentlik.

ПОНЯТИЕ “МУДРОСТЬ” В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Таджибаева Мохинур

Ферганского государственного университета независимый исследователь

Адрес электронной почты: mtojiboyeva95@gmail.com

Номер телефона: +998979494140

Аннотация: В этой статье описывается роль пословиц в английском и узбекском фольклоре и их значение в жизни человека. Также были рассмотрены национально-культурные особенности существующих пословиц, связанных с понятием “мудрость” на английском языке и “мудрость” на узбекском языке, выявлены их сходства и различия. Приведены узбекские эквиваленты пословиц, выражающих мудрость на английском языке.

Ключевые слова: английская и узбекская пословицы, концепт, лингвокультурологический анализ, мудрость, перевод, эквивалентность.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “WISDOM” IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

Tojiboyeva Mokhinur

Independent researcher of Fergana state university

E-mail address: mtojiboyeva95@gmail.com

Phone number: +998979494140

Annotation: this article describes the role of proverbs in English and Uzbek folklore and their importance in human life. National-cultural characteristics of existing Proverbs related to the concept of “wisdom” in English and “wisdom” in Uzbek have also been examined, identifying similar and different aspects. Uzbek equivalents of Proverbs representing wisdom are quoted in English.

Key words: English and Uzbek Proverbs, concept, linguocultural analysis, wisdom, translation, equivalence.

KIRISH.

Hozirgi kunda maqollarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish nafaqat paremiologiya, balki lingvokulturologiya sohasining ham asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda va ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida qaralmoqda. Maqollarning qiyosiy jihatlarini o'rganish til egasi bo'lmish xalqning o'ziga xos madaniyati, mentaliteti va milliy xarakteri tasviri bilan tanishishga yaqindan yordam beradi.

Maqollar tabiatan xalqaro janr hisoblanib, dunyodagi har bir xalq o'z maqollariga ega. Ularda xalqlarning ko'p asrlar mobaynida to'plangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi tajribalari aks ettiriladi va ajdodlardan avlodlarga meros sifatida qoldiriladi. Har bir xalq madaniyatida maqollar bilan bog'liq ko'plab o'xshashliklar va umumiyliklar mavjud bo'lib, bular maqollarning shakl va mazmunida namoyon bo'ladi. Shu jumladan, ingliz va o'zbek folklorshunoligida maqollar ham juda uzoq tarixga ega bo'lib, bugungi kunda ko'plab olimlar tomonidan turli shakllarda o'rganilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz maqollari ustida qizg'in izlanishlar olib brogan olimlar sifatida J.Raymond, V.Mayder, A.Taylor, A.Dandis, N.Noriklarni ayta olamiz. Ular maqollarning strukturaviy tuzilishi, badiiy vositalarning qo'llanilishi va boshqa o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratishgan. Masalan, Mayderning "Proverbs: A Handbook" darsligida [5,34] maqollar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi, paremlar aniqlanadi va tematik jihatdan guruhlariga bo'linadi. Shuningdek, olimning quyidagi asarlari frazeologiya paremeologiya sohalarini tadqiq qilishda roli beqiyosdir: *Proverbs in Literature: An International Bibliography* (1978), *Proverbs are Never out of Season: Popular wisdom in the Modern Age* (1983), *Twisted Wisdom: Modern Anti-Proverbs* (1999), *Proverbs Speak Louder Than Words. Folk wisdom in Art, Culture, Folklore, History, Literature and Mass Media* (2008).

Maqollar nazariyasi haqida o'z izlanishlarini olib brogan amerikalik tilshunos A.Dandes ularning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tadi: [2,52]

- 1) maqollar oddiy va murakkab shaklga ega;
- 2) unda muallif(lar) yo'q;
- 3) maqollar katta muammolarning qisqacha yechimidir;
- 4) ular insoniyatning hayotiy tajribasi aksidir;
- 5) ta'lim va tarbiya jarayonida ulardan keng foydalaniladi.

Mashhur paremiolog A.Taylor aforizmlarni ham maqollarning bir turi sifatida qarab, ularni 2 turga ajratib o'rganishni taklif qiladi: adabiy va xalq maqollari. Aforizmlar adabiy maqollarning namunasi bo'lib, ular millat va xalq tomonidan tan olinadi deya fikr bildiradi. [10,27] Shuningdek, olim maqollarning tarixi haqida so'z yuritib, klassik yoki Bibliyadagi kelib chiqishi bilan bog'laydi. Taylor maqollarda mavjud urf-odat belgilarini aniqlaydi va ularni ob-havo, tibbiyot, qonun-qoida kabi mavzular doirasida tahlil qiladi.

Atoqli ingliz folklorshunoslardan biri Nil Norik o'zining "How proverbs mean: semantic division in English Proverbs" nomli kitobida ingliz tilidagi maqol va matallarni o'rganishning uchta asosiy sababini ko'rsatib o'tadi. Birinchi sababi sifatida maqollar til sathining bir qismi bo'lib, semantik jihatdan alohida birlik

ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni ma'lum voqea-hodisa haqida axborot tashish vazifasini o'taydi. Ikkinchi sababi: maqollar o'z grammatik strukturasi ega bo'lib, frazeologik birliklar, topishmoqlar va boshqa morfologik jihatdan o'xshash murakkab birliklardan farq qiladi. Maqollarda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi turli badiiy vositalarning ishlatilishi tabiiy holdir. Maqollarning an'anaviylik va milliylik tusiga ega ekanligini olim uchinchi sabab qilib ko'rsatadi.

O'zbek folklorshunosligida ham turli yillarda xalq maqollarini to'plash va ularga muayyan tartib berish ishlariga katta e'tibor qaratildi. [6,4] M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R.Jumaniyozov (1964,1967, 1970), B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, I.Haqqulov, R.Zarifov (1978), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov (1989) kabi olimlar tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va hajmdagi maqollar to'plami yaratilgan bo'lsa, M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, H.Karomatov, K.Karomatovalarning tarjimashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. "O'zbekcha otalar so'zi" (1924), "Maqollar va hikmatli so'zlar" (1939), "Otalar so'zi-aqlning ko'zi" (1947), "O'zbek xalq maqollari. I jild" (1978), "O'zbek xalq maqollari. II jild. (1987-1988), "Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati" (1990), "Proverbs, Maqollar, Пословицы" (2000) kabi maqollar to'plami shular jumlasidandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida "donolik" konsepti bilan bog'liq maqollarning lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda ularning semantik xususiyatlariga ko'proq to'xtalib o'tamiz. Bu esa, o'z navbatida, ingliz va o'zbek tillarida mavjud maqollarning o'xshash va farqli tomonlarini ochib beradi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ingliz va o'zbek folklori xalq donoligining obrazli ifodasi bo'lgan maqollarga boy bo'lib, ular orasida donolik haqidagi maqollar ham salmoqli o'rin tutadi. Har ikki xalq madaniyatida "donolik" ijobiy fazilat sifatida yuksak darajada baholanadi va qadrlanadi. Ingliz adabiyoti va folklorida Shoh Sulaymon va o'zbek xalq og'zaki ijodida Luqmoni Hakim kabi personajlar donologi hurmatga sazovor.

Shuningdek, bu xislat maqollarda ulug'lanilishi o'z aksini topadi: ***Wisdom is more precious than wealth.*** [8,2537] O'zbek tilida bu maqolga ekvivalent sifatida ***“Dono durdan a'lo”*** [9,26]ni keltirishimiz mumkin. Keltirilib o'tilgan maqollar mazmunidan shuni anglashimiz mumkinki, donolik moddiy boylikdan, hattoki qimmatbaho sanaluvchi durdanda qimmatliroqdir. Boylik vaqtinchalik qulaylik va imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin, ammo donolik insonning uzoq muddatli faravonligi va muvaffaqiyati garovi bo'lgan abadiy boylik sifatida baholanadi.

Donolik hayotiy tajribalar va ulardan olingan saboqlar mahsulidir. ***“Experience is the mother of wisdom”*** [3,260] maqolida tajriba donolik bilan chambarchas bog'liqligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu maqolni o'zbek tiliga tarjima ***“Tajriba–donolikning onasi”*** ma'nosini beradi. O'zbekcha muqobil varianti sifatida ***“Bir sinalgan tajriba yeti kitobdan afzal”*** [3,154] maqolidan foydalansak bo'ladi.

Donolik o'qib-o'rganish mevasidir. ***“Wise men learn by other men's mistakes; fools by their own”*** [1,463] maqolini o'zbek tiliga tarjima qilganda ***“Dono insonlar boshqalarning xatolaridan o'rganadi, nodonlar o'zlarining”*** ma'nosini beradi ya'ni donolar xatolardan to'g'ri xulosa chiqaradi, nodonlar esa bir xatoni takrorlayverib nodonligicha qoladi. Bu maqolning o'zbek tilidagi ekvivalenti sifatida ***“Aqlni beaqldan o'rgan”*** maqolini tanladik.

Dono bo'lish uchun yoshning ahamiyati yo'qligi to'g'risidagi maqollarning ingliz va o'zbek tillaridagi mavjudligi quyidagilarda ko'ramiz: ***“Have an old head on young shoulders”*** [7,239]. Maqolning mazmuni shundan iboratki, yosh bo'lishiga qaramay yaxshi fikr yuritish qobiliyatiga ega ya'ni keksalarga xos donolik va yetuklik mujassamlashadi. O'zbek tilida ***“Aql yoshda emas, boshda”***, ***“Totli suv toshdan chiqar, yaxshi aql yoshdan chiqar”***, ***“Aql yoshdan, odob boshdan”*** kabi maqollar mazmuniga to'g'ri keladi.

“The brain do not lie in the beard” maqolida ham donolik yosh tanlamasligi haqida bo'lib, ***“beard” (soqol)*** so'zi majoziy ma'noda qo'llanilib, “yetuklik” va “qarilik” ramzini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu maqoldan odamning aql-zakovati, bilimi yoki qobiliyatlari to'g'risida faqat tashqi ko'rinishi,

xususan, yoshga qarab taxmin qilmaslik kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

O'zbek tilida ***“Devor bino bo'lmas, Qari bo'lgan bilan dono bo'lmas”*** maqoliga muqobil sifatida qo'llaniladi.

XULOSALAR.

Ingliz va o'zbek tillarida “wisdom” va “donolik” konseptlari bilan bog'liq maqollarni semantik jihatdan tahlil qilib, ingliz tilida mavjud bo'lgan maqollarning mavzulari o'zbek xalq maqollarida ham uchrashi mumkin degan xulosaga keldik. Natijada donolik bilan bog'liq har qanday mavzuni olmang, deyarli har ikki tilda o'z muqobil variantiga egadir. Ammo ayrim mavzudagi maqollarning bir tilda ikkinchisiga qaraganda ko'proq uchrashi sababi, ko'plab maqollarni o'z ichiga oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'ini tashkil qiladi va o'sha xalqning mentaliteti va milliy xarakter tasvirida yetarli o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Christy R. Proverbs. Maxims and phrases of all ages. 2 vol. Vol.2. Lnd, 1898.–P.463.
2. Dundes A. On the structure of the Proverb, in Mieder, W. & A. Dundes. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press.1994.–P.52.
3. Fergusson R. The Penguin Dictionary of Proverbs. Penguin Books, 1983.–P.260.
4. Karomatova K.M., Karomatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.:Mehnat, –2000.
5. Meider, W. Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.
6. Mirzayev T., Musaqulov A. va bosh. O'zbek xalq maqollari. T.: Sharq. 2005. – B.4
7. Rayner J.L. Proverbs and Maxims. Lnd., 1933. 25 lp. SEL IND-EUR. A Dictionary of Selected Synonyms in the principal Indo- European

Languages (A contribution to the History of Ideas) / by C.D. Buck. Chicago, 1949.–P.239.

8. Stevenson, B. The Home book of Proverbs, Maxims and familiar phrases N.Y., 1948. –P.2537.
9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati.T.,1990. –B.26.
- 10.Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz? O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. –B.27.